

SAN'ATNING SHAXSGA TA'SIRI

O'.R.Zubaydullayev, SamISI, "Jismoniy madaniyat" kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashda san'atning shaxsga bo'lgan ta'siriga asoslanib, bundan tarbiya jarayonida keng qamrovli foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish masalalari keltirilgan.

Kalit so'z va iboralar: san'at, art-pedagogika, art-terapiya, insonparvarlik, ijodkorlik, integrativlik va refleksivlik

Аннотация: Статья посвящена влиянию искусства на личность при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности на основе артпедагогике, а также вопросам формирования умений широко использовать его в образовательном процессе.

Ключевые слова: искусство, артпедагогика, арттерапия, гуманитарные науки, творчество, интегративно-рефлексивное

Annotation: The article focuses on the impact of art on the individual in the preparation of future teachers for professional activities on the basis of art pedagogy, and the issues of building skills for its comprehensive use in the educational process.

Keywords: art, art pedagogy, art therapy, humanities, creativity, integrative and reflexive

Art-pedagogikaning mazmun-mohiyati ta'lim va tarbiyada badiiy faoliyatning turli ko'rinishlari hamda shaxsning san'at vositalari orqali rivojlanishida, shuningdek, ularda badiiy-madaniy va amaliy bilim, ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladi.

E.V.Taranov art-pedagogikaning tushunchasini zamonaviy yondashuvlar bo'yicha milliy nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida bir qancha fundamental yondashuvlarini aniqlagan. Bular: **korreksion-pedagogik, badiiy-didaktik, tor pragmatik hamda integrativ yondashuv**. [6]

Ushbu yondashuvlarni quyida tahlilini berib o'tamiz.

Korreksion-pedagogik yondashuv. Ko'pincha art-pedagogika korreksion (tuzatish) ish sifatida qaraladi. Art-pedagogikaning predmeti – bu rivojlanishida muammosi bor bolalarga san'at yordamida pedagogik ta'sir etish sanaladi.

Art-pedagogikaning ushbu yo'nalishi fan sifatida Rossiyalik olimlar E.A. Medvedeva, I.Yu. Levchenko va b.lar tomonidan "Maxsus ta'limda art-pedagogika va art-terapiya" tadqiqot ishi sifatida o'rganilgan bo'lib, "Art-pedagogika – bu ikki ilmiy bilim (san'at va pedagogika) sintezi sanalib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni san'at orqali rivojlantirish hamda badiiy madaniyat ko'nikmalarini tarkib toptirish", deyiladi. [7]

Badiiy-didaktik yondashuv. Maxsus tashkil etilgan san'at ta'limi jarayonida art-pedagogika ostida turli xil metod va texnologiyalar tushuniladi. Bu yondashuv ingliz tilidagi «art-pedagogy» (art-pedagog) terminidan so'zma-so'z tarjima qilingan. Ushbu yondashuvga muvofiq badiiy-pedagogik ta'lim olgan barcha mutaxassislar art-pedagog sanaladi. Masalan, tasviriy san'at o'qituvchisi.

Demak, art-pedagogika – bu turli xil toifadagi insonlarga badiiy bilim va ko'nikma beruvchi mutaxassisning kasbiy faoliyati sanaladi. Art-pedagogikaning bunday talqin etilishi xorijiy tadqiqot ishlardan art-terapiya tarjimasidan kelib chiqqan. Masalan, L.D.Lebedevaning yozishicha, “art-pedagog bolalarni badiiy tarbiyalash va tasviriy san'at masalalarini hal qiladi”.[8]

Tor pragmatik yondashuv. Ushbu yondashuv doirasida art-pedagogika faqat amaliy ma'noda qaraladi. Ya'ni, bolalarni odatiy ishlashga yo'naltirilgan muayyan yo'nalish bilan bog'liq muammolarni hal qiluvchi tadqiq etilgan metodologiya sanaladi. Bu yondashuv V.Linkova tomonidan tavsif etilgan bo'lib, olima “Artpedagogika” nomli kitoblar turkumini yaratgan. Ularni savodxonlik samaradorligini oshirish maqsadida san'atni qo'llash birlashtiradi.[9] Ushbu yondashuvlar art-pedagogikaning to'g'ri tushunchalarini, ya'ni ba'zi funksiyalarini subyektiv tanlashni ta'minlaydi.

Integrativ yondashuv. Bu yondashuv tanlov qoidalar (“yoki-yoki”)ga emas, balki integrativ qoidalar (“va-va”)ga asoslanadi. Integrativ yondashuvning mohiyati shundaki, art-pedagogikaning multimodal shakli orqali uning barcha majmua funksiyalarini faollashtirishdan iborat.

“Art-pedagogika – bu san'atning har xil turlarini shaxs tarbiyasiga integrasiyalashgan holda qo'llashga asoslangan pedagogik texnologiya”.[10] Ushbu yondashuv zamonaviy san'atning barcha imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi va uni pedagogik jihatdan keng amalga oshishiga imkon yaratadi.

An'anaga ko'ra, san'at - bu ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, dunyoni o'ziga xos ma'naviy egallash turi hamda voqyelikni badiiy va xayoliy qayta ishlab chiqarish usuli sanaladi. San'atning psixologik va pedagogik jarayonlarga ta'siri mexanizmlarini ko'plab xorijlik (J.Demor, O.Dskroli, E.Seguin) va Rossiyalik (L.S.Vigotskiy, A.I.Graborov, V.P.Kashchenko va boshqalar) olimlar tomonidan o'rganilib, “San'at – shaxsning axloqiga, shuningdek, tafakkur, tasavvur, his-tuyg'ulari va hissiyotlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ta'lim vositasi”, ekanligi e'tirof etiladi. P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy va boshqa olimlar esa, “San'at – bu insonni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitishda samarali omil”, deya ta'rif berishadi.

San'at odamlarni pragmatik maqsadlar chegarasidan tashqariga olib chiqib, insoniyatni hayotga qaytarish, borliqni eng yuksak qadriyatlari orqali haqiqatni o'zlashtirishiga yordam beradi. Shunday qilib, V.A.Suxomlinskiy “O'g'ilga maktublar” da shunday yozadi: “Gimnastika tanani to'g'rilaganidek, san'at ham inson ruhini “to'g'rilaydi”. V. A. Suxomlinskiy “Tarbiya to'g'risida”gi kitobida “... har xil yo'llar bilan ruhning sezgirligini rivojlantirish, vijdonni uyg'otish, ma'naviyatni qo'llab-quvvatlash kerak”, deydi. “Bunday tarbiya vositalari orasida, birinchi navbatda, go'zallik bilan tarbiya berish birinchi o'rinda turadi. Aynan, go'zallikka murojaat qilish, qalbni zabt etish, go'zallikni his qilish, odamning his-tuyg'ularini shu qadar yaxshiyladiki, u so'zni qabul qila boshlaydi, demak u tarbiyali bo'la boshlaydi”.¹

¹ Сухомлинский В.А.О воспитании [Электронный ресурс].

URL:<http://pedagogic.ru/books/item/ro0/s00/z00000009/index.shtml> (дата обращения:08.12.2013 г.).

T.A.Florenskayaning ta'kidlashicha, san'at bilan muloqot nafaqat odamlar bilan aloqa chegaralarini kengaytiradi, balki, dunyoni har xil ko'zlar bilan ko'rish imkonini beradi hamda qiyin hayotiy vaziyatlarda ma'naviy yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, badiiy idrok va ijodkorlik orqali erishiladigan va odamni tajribalar, salbiy his-tuyg'ular, o'z munosabatini yorituvchi va yuksaltirishdan ozod qiladigan katarsis alohida o'rin tutadi.²

San'atning shaxsga ta'siri asosan uch darajada amalga oshiriladi:

- **birinchi daraja**, tananing fiziologik va biologik o'zgarishi orqali sodir bo'ladigan psixofiziologik, vizual(ko'rgazmali), eshitish va boshqa retseptorlarning faollashishi, ya'ni psixofiziologik ta'sir hisoblanadi (B. G. Ananyev, V. A. Ganzen, A. L. Gotsdiner, V. N. Myasimiyev, V. I. Petrushin, D. N. Uznadze va b.);
- **ikkinchi daraja**, san'atning hissiy-irodaviy tuzilmasiga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan psixologik, ya'ni, tanani ruhiy bo'sh qo'yish yoki aksincha ruhiy faollashtirishga qulay yengillik (A.V.Zaporojes, A.N.Leontyev, P.M.Yakobson va b.);
- **uchinchi daraja**, ijtimoiy-psixologik, bunda san'at shaxsga ta'sir qilib, unda katartik reaksiyaga sabab bo'ladi, o'z navbatida shaxsni o'zgartiradi va uyg'unlashtiradi, ekzistensial shaxs tuzilmalarini shakllantiradi (L. V. Vigotskiy, T. A. Florenskaya va boshqalar).³

San'atning tarbiyaviy ta'siri ijtimoiy-psixologik darajada amalga oshiriladi.

Ko'pincha "art-pedagogika" tushunchasi "art-terapiya" atamasi bilan birgalikda ishlatiladi. Biroq, "art-pedagogika" tushunchasini "art-terapiya" tushunchasi bilan solishtirganda shuni e'tirof etish mumkinki, "art-pedagogika" atamasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu ikki tushuncha bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lsada, biroq ular sinonim emas. L.D. Lebedevaning fikricha, "art-terapiya atamasini art-pedagogika bilan almashtirganda, asl tushunchaning mohiyati yo'qoladi".⁴

J. S. Valeyeva, L.D. Lebedeva, I.Yu. Levchenko, Ye.A. Medvedeva, S.V. Starikovalar tadqiqotlarida "art-pedagogika" va "art-terapiya" tushunchalarini qiyosiy tahlilini qilishgan bo'lib, ular ushbu tushunchalar bo'yicha quyidagi xulosani chiqarishgan: ularning semantik va amaliy mazmunida umumiylik va xususiylik mavjud bo'ladi. Bunda insonlarning badiiy-ijodiy faoliyati umumiy, san'atga bo'lgan munosabatidagi "erkinlik", ishlatiladigan asboblari va san'at turlarining shaxsga ijobiy ta'siri xususiy sanaladi.

• ² Флоренская Т. А. Диалоги о воспитании и здоровье: духовно ориентированная психотерапия // Духовно-нравственное воспитание. М., 2001.

•

³ [3] Выготский Л. С. Психология искусства М, 1986.

⁴ Лебедева, Л.Д. Педагогические основы арттерапии в образовании: дис. ... докт. пед. наук/ Л.Д. Лебедева – СПб. 2003.

Ye.A. Medvedeva “art-terapiya” va “art-pedagogika” tushunchalarini solishtirib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “bu atamalarning o’xshashligi shundaki, tushunchalarning birinchi qismi –“art” – “badiiy” so’zi san’at bilan sinonim sanaladi. Ikkinchi qismida esa: terapiya – davolash ta’siri, tibbiy yo’nalish; pedagogika – ta’lim, tarbiya, rivojlanish haqidagi fan”.⁵

Art-pedagogika inson “muammolari” bilan emas, balki uning imkoniyatlari bilan shug’ullanadi. Bunda birinchi navbatda insonning ijobiy imkoniyatlari doirasini kengaytirish turadi.⁶

Ko’rib chiqilayotgan muammo doirasida art-pedagogika bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning o’ziga xos xususiyatlarini shakllantirishi bo’yicha quyidagilarni keltirish mumkin:

- ta’lim jarayonida tasviriy san’at vositalaridan foydalanish;
- ta’lim jarayonida o’qituvchi va talaba o’rtasidagi muloqotning ustunligi;
- o’qituvchi va talaba hamkorligida badiiy ijodiyot, auditoriya va auditoriyadan tashqari vaqtlardagi turli xil bir-biriga bog’liq mashg’ulotlar;
- turli mavzularni o’rganishda san’at asarlaridan foydalanish;
- bo’lajak o’qituvchilarning kasbga tayyorlash muhitini va ijodiy faoliyatini tashkil etish.

Bo’lajak o’qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda art-pedagogikaning maxsus maqsadi: talabaning ma’naviy va axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonida axloqi va estetikasini shakllantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlash.

Axloqiy va estetik immunitetni bo’lajak o’qituvchilarda shakllantirish oliy ta’lim muassasasi o’quv-tarbiyaviy jarayonining muhim vaziflaridan sanalar ekan, bu tushunchalarga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar bilan izoh berib o’tamiz.

Axloqiy immunitet – bu mikro va makro muhitda axloqsiz hodisalarga qarshilik ko’rsatuvchi shaxsiy sifat sanalib, uning jamiyatda tez o’zgarib borayotgan ijtimoiy vaziyatlarga bo’lgan munosabatining yetarliligi hamda ma’naviy manbalarni salbiy axloqiy yo’nalishga olib boradigan moddiy va dunyoviy vasvasalarni yengishga safarbar etishdir, deydi A.S.Metelyagin.

Shuni aytish muhimki, bo’lajak o’qituvchilarni art-pedagogika asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashimizda ularda axloqiy immunitetni hosil qilish birinchi vaziflardan sanaladi. Ya’ni, salbiy holatlarga va muammolarga axloqan yondashib, san’at orqali go’zallikni his qilib, turli vaziyatlarga ijodiy yondashib o’z “men”ini shakllantirishi juda muhimdir.

Estetik immunitet – bu shaxsning ma’naviy shakllanishining o’ziga xos xususiyati bo’lib, bunda go’zallikdan go’zallikni ajrata olish, san’atda uyg’unlikni uyg’unsizlikdan, tartibdan betartibliklarni farqlashi kabi qobiliyatining hamda

⁵ Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании /Е.А. Медведева, И.Ю. Левченко, Л.Н. Комиссарова, Т.А. Добровольская. М.: Изд. Центр «Академия», 2001. 248 с., С. 24.

⁶ Старикова С.В. Развитие профессиональной компетентности будущего социального педагога средствами арт -технологии: дис. ... канд. пед. наук. М., 2008.

insonning hulqida, xatti-harakatida, ijodida; ommaviy ta'sirga va madaniyatsizliklarga chidamli bo'lishi tushuniladi.⁷

Bo'lajak o'qituvchilarda estetik immunitetning shakllanishi juda muhim sanaladi. Estetik immunitetning shakllanishi kelgusida kasbiy-tarbiyaviy faoliyatida: tadbir, bayram kechalarini tashkil etishi; o'quvchi va ularning otionalari bilan muloqoti, pedagog imidjini yaratishi va boshqalarda eng muhim qurol bo'ladi.

Art-pedagogikanino asosiy tamoyillariga **insonparvarlik, ijodkorlik, integrativlik va refleksivlik** kiradi.

Insonparvarlik g'oyasi art-pedagogikada asosiy tamoyil sanalib, har bir talabaga badiiy, intellektual va boshqa qobiliyatlaridan qat'iy nazar alohida munosabatda bo'lish pedagog faoliyatining bosh g'oyasi sanaladi. Talabaning alohida qobiliyat egasi ekanligiga ishonish pedagog munosabatida namoyon bo'ladi. Tarbiyaviy maqsadlarga ustuvorlik beriladi: o'quv jarayoni yaxshilik va yomonlik, mehr-muhabbat, go'zallik va uyg'unlik kabi muammolarga boy bo'ladi.

Erkin ijodiy muhitda ijodiy jarayonni tashkil etish orqali shaxsiy ijodkorlik yaratiladi. Ijodkorlik qobiliyati majburlash orqali yuzaga chiqmaydi. Shu sababli, artpedagogdan qanday qilib qulay ijodiy muhit va shart-sharoitni yaratish masalasi turadi.

Refleksivlik g'oyasi – bu insonning muammoli-ziddiyatli vaziyatlarni ijodiy anglashi va yengib o'tishiga tayyorligi hamda g'ayrioddiy amaliy vazifalarni belgilashi va hal qilishi, shuningdek, insonlar o'rtasidagi g'ayrioddiy munosabatlarga moslashishi tushuniladi.

Integrativlik g'oyasi art-pedagogikaning mazmun mohiyati aks etadi. Avvalo, bunda pedagogika, psixologiya, san'at va inson tafakkurining boshqa sohalari integrasiyasi namoyon bo'ladi. Talabaning axloqiy va estetik qiyofasini boyitishga qaratilgan turli xil badiiy faoliyat turlari va shakllarining uyg'unlashuvi sanaladi.⁸

Adabiyotlar ro'yxati

1. Сухомлинский В.А. О воспитании [Электронный ресурс]. URL:<http://pedagogic.ru/books/item/ro0/s00/z0000009/index.shtml> (дата обращения: 08.12.2013 г.).
2. Флоренская Т. А. Диалоги о воспитании и здоровье: духовно ориентированная психотерапия // Духовно-нравственное воспитание. М., 2001.
3. Выготский Л. С. Психология искусства М, 1986.
4. Лебедева, Л.Д. Педагогические основы арттерапии в образовании: дис. ... докт. пед. наук/ Л.Д. Лебедева – СПб. 2003.

⁷ Соколова, Т.А. Теоретико-методологические основы артпедагогики // Открытый класс: сетевые образовательные сообщества. – 2009 [Э/п]. – Р/д: <http://www.openclass.ru/node/7719>

⁸ Сергеева Наталья Юрьевна Содержание понятия «Артпедагогика» // Известия ВГПУ . 2008. №1. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/soderzhanie-ponyatiya-artpedagogika> (дата обращения: 17.02.2015).

5. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании /Е.А. Медведева,И.Ю. Левченко, Л.Н. Комиссарова,Т.А. Добровольская.М.: Изд.Центр «Академия», 2001. 248 с., С. 24.
6. Таранова Е.В. Нравственное воспитание старших дошкольников средствами артпедагогики: дис. ...канд. пед. наук. Ставрополь, 2003.
7. Медведева Е.А., Левченко И.Ю., Комиссарова Л.Н., Добровольская Т.А. Артпедагогика и арттерапия в специальном образовании / М.: Изд.Центр «Академия», 2001. 248 с., С. 24.
8. Лебедева, Л.Д. Педагогические основы арттерапии в образовании: дис. ... докт. пед. наук/ Л.Д. Лебедева – СПб. 2003.
9. Линькова В. Учись читать! М.: изд-во «АСТ» , 1998.
- 10.Железовская Г.И., Еремина С.В. Принципы формирования дидактических терминов// Педагогика. 1999. №5. С. 18 -22.